

YOSHLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**Fayzullayeva Shahzoda**

Shahrisabz davlat pedagogika

instituti 3- kurs 2-22- guruh talabalari

Annotatsiya : Yoshlik davri inson hayotidagi eng muhim va psixologik rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biridir. Ushbu davrda yoshlar shaxsiy identifikatsiya, emotsional o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va kognitiv rivojlanish kabi bir qancha muhim jarayonlardan o'tadilar. Tezisdav yoshlik davrining psixologik xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va yuzaga keladigan psixologik muammolar tahlil qilingan. Yoshlik davri davomida yoshlarni to'g'ri tushunish va qo'llab-quvvatlashning ahamiyati hamda bu davrda yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlarga oid ilmiy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar : Shaxsiy identifikatsiya, emotsional o'zgarishlar, kognitiv rivojlanish, depressiya.

Yoshlik davri — bu insonning rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, u bolalikdan o'sish va kattalikka o'tish davri sifatida belgilanishi mumkin. Ushbu davrda yoshlar psixologik va ijtimoiy o'zgarishlarga duch keladilar, bu esa ularning hayotidagi yangi tajribalarni shakllantiradi. Yoshlik davri o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Yoshlik davrining boshlanishi va yakuni haqida turli psixolog olimlar har xil yondashuvlarga ega bo'lishgan. Bu davrning yoshi madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillarga qarab farq qilishi mumkin, lekin umumiy ilmiy qarashlarga ko'ra, yoshlik (o'smirlik) odatda 12–18 yoki 12–21 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. Hozir bir qancha ilmiy nazariyalardagi yoshlik davriga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilib o'tamiz.

1. Zigmund Freyd (psixoanalitik nazariya)

U yoshlik davrini genital bosqich deb ataydi. Freydga ko'ra, bu bosqich 12 yoshdan boshlanadi va balog'atga yetish bilan tugaydi. Bu davrda shaxsiy identifikatsiya va jinsiy o'zlik shakllanadi.

2. Erik Erikson (psixosotsial rivojlanish nazariyasi)

Erikson yoshlik davrini "Identifikatsiya va Rollar chalkashligi" bosqichi deb ataydi. Unga ko'ra, bu bosqich 12 yoshdan 18 yoshgacha davom etadi. Bu davrda inson o'zini kimligini aniqlashga harakat qiladi, shaxsiy qarashlari, kasbiy yo'nalishi, hayot maqsadini izlaydi.

3. Jan Piaje (kognitiv rivojlanish nazariyasi)

Piaje yoshlarni "formal operatsion bosqich" deb ataladigan rivojlanish bosqichiga kiradi deb hisoblaydi. Bu bosqich taxminan 11–12 yoshdan boshlanib, yetuk fikrlash (abstrakt, nazariy) rivojlanishi bilan davom etadi. Piaje yoshlar bu davrda murakkab muammolarni tushunish va nazariy fikrlash qobiliyatiga ega bo'la boshlashlarini aytadi.

4. Lev Vygotskiy (sotsial-rivojlanish nazariyasi)

Vygotskiy yoshlarning rivojlanishini jamiyat va madaniyatga bog'laydi. U aniq yosh chegarasini bermasa-da, yoshlar davrini sotsial rol va tilda o'zgarishlar bilan bog'laydi.

Bu yosh oralig'ida inson shaxs sifatida shakllanadi, mustaqil fikrlash, o'zini anglash va ijtimoiy o'rnini belgilash bosqichlarini bosib o'tadi. Har bir olim bu jarayonni o'ziga xos tarzda izohlagan, lekin ularning barchasi bu davrning shaxsiyat rivojlanishidagi ahamiyatiga urg'u beradi.

O'zbekistonlik olim Ergash G'oziyev yoshlik davri haqidagi quyidagi fikrlarni aytib o'tgan. Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davming o'ziga xos

xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir.¹

Yoshlik davrida fiziologik o'zgarishlar ham amalga oshadi. Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, krish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananovning ilmiy tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va nonverbal aqliy (mantiqiy funktsiyalar) sodda jarayonlargacha (organizmda issiqlik paydo bo'lishidan metabolism - modda almashinuvigacha), hatto shaxsning xususiyatigacha bo'lgan (holatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko'rsatib o'tadi.²

S.V.Kravkov sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta'kidlaydi. B.G.Ananov laboratoriyasida olingan natijalar inson funksional darajasining oshishi 23-27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funksional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funksional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikro davrlarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati har xil kechishini ko'rsatib turibdi. Yu.N.Kulyutkin katta kishilarning diqqat, xotira, tafakkur bilish jarayonlarini birgalikda o'rgangan. Yu.N.Kulyutkin o'z tadqiqotida 0-130 shkalagacha oraligni tekshirib, 22-25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5 tafakkur 102,5 ballga tengligini, 26-29 yoshlarda esa diqqat 102,8, xotira 97,0 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim V.Shevchuk voyaga yetgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq qilib, 11-20 yoshlar oralig'ida 12,5 foiz, 21-30 yoshlarda esa 66 foiz ekanini aniqladi. Ziyolilarning ilmiy mahsuli dinamikasini o'rgangan F.Esareva uning

¹ G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y

² Davletshin M.G., Mavlonov M.M., To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 y

boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, psixologlarda 27-30, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlarni tashkil qilishini ko'rsatib o'tadi. Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan V. Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishish eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu odamlarning 45,4 foizida bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto, u 45 yoshda 3 foizga teng bo'ladi.³

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, ya'ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlik davrida yoshlarning barcha o'y-fikrlari o'ziga qaratiladi. Yosh avlod o'z tajribasini betakror deb o'ylaydi, ota-onalar va do'stlar uni tushuna olmasligini va hatto birinchi uchrashuv yoki maktabni yomon ko'rishni tushunmasligini xayoliga keltiradi. Birinchi muhabbat paytida yoshlar hattoki, "Ona birinchi muhabbat nimaligini bilmaysiz" deb aytishi mumkin. Pajaning aytishicha, yoshlarning shunchalik intellektual darajaga yetishi bu insoniy qonuniyatdir. Ularning taxmin qilish qobiliyati yaxshi rivojlangan. Biz fikr yuritishning yangi darajasini insoniy tabiat, qat'iyatlik va adolat hamda yaxshilik va yomonlik haqida fikr olib borgandagina ko'ramiz.

Xulosa qilib aytaolamanki, Yoshlik davri inson hayotidagi eng mas'uliyatli va muhim bosqichlardan biri blib, unda shaxsning psixologik, emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishi jadal sur'atlarda kechadi. Bu davrda o'zini anglash, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, jamiyatda o'rnini topish kabi muhim jarayonlar amalga oshadi. smirlik va yoshlik yillari nafaqat jismoniy, balki ichki ruhiy zgarishlar davri hisoblanadi. Shuning uchun bu davrda yoshlarni chuqur tushunish, ularning psixologik holatiga e'tiborli blish, sog'lom ijtimoiy muhit yaratish va psixologik kmak krsatish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat vakillari bu davrdagi ziga xosliklarni inobatga olgan holda, yoshlarning tlaqonli rivojlanishiga

³ G'oziyev E.G'., Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi T-2003 y

sharoit yaratishi lozim. Zero, yoshlik davrida shakllangan sog'lom shaxs kelajakda jamiyatning yetuk, faol va mas'uliyatli a'zosi blishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RYXATI

1. Erik

Qobiliyat va uning rivojlanishi.

Qobiliyat va iqtidor

Boxodirova Barchinoy

Annotasiya: Ushbu maqolada qobiliyat va iqtidor va uning insonda qay tarzda namoyon bo'lishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari qobiliyatning qay tarzda rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iqtidor, rivojlanish, inson, shaxs, ko'nikma, malaka, bilim, iqtidor, salohiyat, mahorat.

Inson tabiatan o'ziga xos, noyob va takrorlanmas mavjudotdir. Uning ichki imkoniyatlarini tashkil qiluvchi psixologik xususiyatlardan biri bu — qobiliyatdir. Qobiliyat insonning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan tayyorligi, bu jarayonni qanday tez, oson va mukammal bajarishini belgilovchi omildir. Qobiliyatning psixologik mohiyati

Psixologiyada qobiliyat — bu insonning individual xususiyatlaridan iborat bo'lib, ular uning faoliyati samaradorligini belgilaydi. Qobiliyatlar o'z-o'zidan bilim yoki ko'nikma emas, balki ularni egallash imkoniyatini bildiradi. Ular insonning aqliy, hissiy, irodaviy va jismoniy salohiyatiga tayanadi. Har qanday qobiliyat faoliyat davomida namoyon bo'ladi. Shu sababli, qobiliyatlar faqat harakat, izlanish va amaliy mashg'ulotlar orqali aniqlanadi va rivojlanadi.

Qobiliyat va iqtidor

Qobiliyat va iqtidor ko'p hollarda sinonim sifatida qo'llaniladi, biroq ular orasida muhim farq mavjud. Iqtidor — bu ma'lum bir faoliyat turida yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarga erishish imkonini beruvchi yuqori darajadagi qobiliyatdir. Iqtidorli insonlar odatda ma'lum bir sohada erta va tez rivojlanish, yangi g'oyalarni ilgari surish, ijodiy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Masalan, yosh bolada musiqiy iqtidor bo'lsa, u notalarni tez eslab qoladi, ohangni to'g'ri topadi va hissiyot orqali ifoda eta oladi. Biroq bu iqtidorni rivojlantirish uchun muhit, ta'lim, qo'llab-quvvatlov zarur. Aks holda, bu imkoniyatlar so'nib ketishi ham mumkin.

Qobiliyatlarning tasnifi

Qobiliyatlar turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

Tabiiy qobiliyatlar – biologik asosga ega bo'lib, idrok, xotira, reflekslar, diqqat kabilarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy qobiliyatlar – jamiyatda faoliyat yuritish, muomala qilish, rahbarlik qilish, tashkilotchilik qobiliyatlari.

Umumiy qobiliyatlar – barcha faoliyat turlarida kerak bo'ladigan aqliy salohiyat, tafakkur, nutq, muomala qobiliyati.

Xususiy qobiliyatlar – muayyan soha yoki faoliyat turi bilan bog'liq: matematik, musiqiy, badiiy, sport va boshqalar.

Shuningdek, nazariy (fikrlashga asoslangan) va amaliy (harakatga asoslangan), ijodiy (yangilik yaratishga qaratilgan) qobiliyatlar ham ajratiladi.

Qobiliyatning rivojlanish shartlari

Qobiliyatlar tug'ma imkoniyatlar asosida shakllansa-da, ularning rivojlanishi ko'p jihatdan tashqi sharoitlarga bog'liq:

Oila va maktab muhiti – dastlabki tarbiya va ta’lim qobiliyatlar rivojida muhim rol o’ynaydi.

Motivatsiya va qiziqish – inson o’zini qiziqtirgan faoliyatga nisbatan ko’proq kuch sarflaydi va natijada o’sadi.

Mashq va mehnat – doimiy shug’ullanish, amaliy tajriba, takrorlash orqali qobiliyatlar mustahkamlanadi.

Ustozlar va yo’l-yo’riq – to’g’ri rahbarlik, ijobiy namuna va turtki iqtidorli shaxs shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qobiliyatni baholash

Qobiliyatni aniqlash va o’lchash murakkab jarayon bo’lib, bunda turli metodlar qo’llaniladi. I.Q. (intellekt koeffitsienti) usuli eng keng tarqalganlaridan biri sanaladi. Ammo bu usul ko’proq mavjud bilim va ko’nikmalarni o’lchaydi, salohiyatni esa to’liq aks ettirmaydi.

Shu sababli, L.S. Vygotskiy tomonidan taklif etilgan “yaqin rivojlanish zonasi” kontseptsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv bola hozirda nimalarga qodirligi emas, balki malakali yordam orqali nimalarga erisha olishini aniqlashga yordam beradi. Qobiliyat — insonning ma’lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta’minlaydigan psixik xususiyatlar yig’indisidir. Qobiliyatning kelib chiqishi, shakllanishi va taraqqiyoti muammosi psixologiyada eng murakkab va muhim masalalardan biridir. Bu borada biologik va ijtimoiy omillar o’rtasidagi o’zaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tug’ma va orttirilgan qobiliyatlar muammosi

Qobiliyatning tug’ma ekanligini mutlaq inkor etib bo’lmaydi. Miya tuzilmasining individual xususiyatlari, sezgi a’zolari va funksional imkoniyatlar kabi omillar insonda

dastlabki layoqat sifatida mavjud bo'ladi. Biroq bu layoqatlarning qobiliyatga aylanishi — faqatgina ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim va faoliyat orqali ro'y beradi. Shu bois, biologik asoslar zaruriy bo'lsa-da, yetarli emas.

Tarixiy qarashlar va tanqidiy tahlil

F.A.Gall va F.Galton kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan irsiylik g'oyalari o'z vaqtida ahamiyatli bo'lsa-da, ularning dalillari bugungi ilmiy mezonlarga javob bermaydi. Galtonning irsiyatga oid fikrlari statistik asosga ega bo'lmagani, Gallning "kallaning shakliga qarab qobiliyatni aniqlash" degan nazariyasi esa soxta fan sifatida rad etilgan.

Psixologik izlanishlar va zamonaviy yondashuvlar

B.M.Teplov, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qobiliyat va iste'dod masalasiga murakkab, chuqur yondashuvni taqdim etdi. Teplov qobiliyatlar individual nerv tizimi xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatsa, Leontev funksional organlar nazariyasida shaxsning faoliyat davomida qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini asoslaydi.

Talant va uning tuzilishi

Talant — bu qobiliyatlarning yuksak darajasi bo'lib, u murakkab, original, mustaqil faoliyat yuritish imkonini beradigan individual psixik xususiyatlar yig'indisidir. Talant muvaffaqiyat, mustaqillik, originallik, ijtimoiy yaratuvchanlik imkoniyati kabi belgilar orqali ifodalanadi. Biroq talant — mehnat, tajriba, ko'nikma va sharoitlar orqali rivojlanadigan murakkab psixologik hodisadir.

Qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari

Qobiliyatning shakllanishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi:

Tabiiy moyillikni aniqlash va qo'llab-quvvatlash

Mutaxassis rahbarligida tizimli mashg'ulotlar

Aqliy operatsiyalarni shakllantirish

Umumiy intellektual salohiyatni oshirish

Faollik va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish

Individual yondashuvni ta'minlash

Reproduktiv va ijodiy qobiliyatlar

Qobiliyatlar o'zining rivojlanish darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

Reproduktiv daraja — mavjud bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish

Ijodiy daraja — yangi g'oya va yechimlar ishlab chiqish.

Bu ikki daraja o'zaro bog'liq bo'lib, rivojlanish davomida biridan ikkinchisiga o'tish mumkin.

Qobiliyat va talant inson tabiatining noyob jihatlaridan biridir. Ular tug'ma layoqatlarga bog'liq bo'lishi mumkin, ammo ular ijtimoiy muhit, ta'lim, tarbiya va faoliyat orqali shakllanadi. Shu sababdan ham qobiliyatlar taraqqiyoti uzluksiz ta'lim tizimi va shaxsni har tomonlama rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, qobiliyat — bu inson imkoniyatlarini ifodalovchi eng muhim psixologik tushunchalardan biridir. U shaxsning o'sishi, rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Iqtidor esa qobiliyatning yuqori shakli bo'lib, u orqali inson o'zining noyob qirralarini kashf etadi. Har bir inson o'z qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'z hayotini mazmunli va samarali o'tkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ananyev B. G. (1980). Inson psixologiyasi. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Bodalev A. A. (1977). Shaxs psixologiyasi. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
3. Gardner H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
4. Saribayev Z. Q. (2004). Psixologiyadan ma'ruzalar. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Shadrikov V. D. (1996). Способности и человеческая деятельность. Moskva: Logos.
6. Sternberg R. J. (1996). Successful Intelligence. New York: Simon & Schuster.
7. Vygotskiy L. S. (1991). Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
8. Xaydarov F. I, Xalilova N.I "Umumiy psixologiya" (2009) Toshkent
- son, E. H. (1950). "Childhood and Society." Norton & Company.
2. G'oziyev E.G'., Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi T-2003 y
3. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
4. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 y